



## TERMIN VA TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASI HAMDA ULARNING LINGVISTIK MOHIYATI

SULAYMANOVA SHAHZODA G'ULOM QIZI

O'zbekiston Milliy Universiteti Filologiya

va tillarni o'qitish (nemis tili) talabasi

Ilmiy rahbar: Yo'ldoshova Adolat

(sulaymanovashagzoda@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola termin va terminologiya tushunchasi hamda ularning lingvistik mohiyatini o'rganadi. Jumladan, olimlar nazariyalari, va fikrlarini tahlil qiladi. Shuningdek olimlarning termin va terminologiyaga bergan tariflarini ko'rib chiqadi va bayon qiladi.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, yerarxiya, lingvistika, leksika, tilshunoslik, so'z.

**Аннотация:** Данная статья исследует понятия термина и терминологии, а также их лингвистическую сущность. В частности, анализируются теории и мнения ученых. Также рассматриваются и излагаются определения, данные учеными терминам и терминологии.

Ключевые слова: термин, терминология, иерархия, лингвистика, лексика, языкознание, слово.

**Abstrakt:** Dieser Artikel untersucht die Begriffe „Terminus“ und „Terminologie“ sowie deren linguistisches Wesen. Insbesondere werden die Theorien und Meinungen verschiedener Wissenschaftler analysiert. Zudem werden die von Wissenschaftlern formulierten Definitionen für Termini und Terminologien betrachtet und dargelegt.

Schlüsselwörter: Terminus, Terminologie, Hierarchie, Linguistik, Lexik, Sprachwissenschaft, Wort.



Maxsus leksika hamda muayyan faoliyat sohasiga oid lug'aviy birliklar majmui terminologiya fanining markaziy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda maxsus leksika deganda biron-bir fanga tegishli bo'lgan terminlar va ularga tenglashtirilgan barqaror birikmalar tushuniladi. Tilshunos olim A.Reformatskiy terminlarni maxsus vazifa bajaruvchi so'zlar sifatida tavsiflasa, A.V.Kalinin kasb-hunar va fan sohalariga xos lug'at boyligini ikki yirik guruhga ajratishni taklif etadi. Uning yondashuviga ko'ra, birinchi guruhni qat'iy ilmiy tu shunchalarni ifodalovchi terminlar tashkil etsa, ikkinchi guruhga yarim rasmiy xarakterdagi professionalizmlar kiritiladi. Termin va professionalizm o'rtasidagi tub farq ularning rasmiylik darajasida namoyon bo'ladi, ya'ni termin muayyan sohada qonunlashtirilgan, qat'iy ilmiy ta'rifga ega bo'lgan tushuncha nomi bo'lsa, professionalizm ko'proq jonli so'zlashuv nutqida qo'llaniladigan va aniq nazariy asosga ega bo'lmagan birlikdir. Terminologiyaning asosiy o'rganish obyekti maxsus so'zlar, maxsus leksika sanaladi. Maxsus leksika deganda ma'lum bir sohaga tegishli lug'aviy birlik va ularga tenglashgan birikmalar tushuniladi. Adabiyotlarda lingvistik terminologiya, fizik terminologiya deb ham yuritiladi. A.Reformatskiy bu xususda shunday yozadi: «... terminlar bu maxsus so'zlardir»<sup>1</sup>.

A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasb-hunarga oid so'zlarni «maxsus leksika» deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi: 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.<sup>2</sup> U fikrini davom ettirib, «Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy qonunlashtirilgan biror bo'lgan, tushunchaning qabul qilingan va ifodasidir, nomidir, professionalism esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda,

---

1 Reformatskiy A. A. Was sind Termin und Terminologie. – Fragen der Terminologie. – Moskau, 1961. – S. 52.

2 Калинин А.В. Лексика русского языка. – Москва: Просвещение, 1975. – С. 78.



tushuncha qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir»,<sup>3</sup> - deydi. Zamonaviy tilshunoslikda terminlar umumxalq tilining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, fan, texnika va madaniyatga oid tushunchalarni yagona ma'noda ifodalashi bilan ajralib turadi. Etimologik jihatdan lotincha chegarani bildiruvchi tushunchadan kelib chiqqan terminlar ekspressivlik va emotsionallikdan xoli bo'lishi, aniq qo'llanilish doirasiga egaligi bilan umumiste'mol so'zlaridan farq qiladi. Tilshunoslikdagi fonema, morfema kabi birliklar yoki aniq fanlardagi turli tushunchalar bunga misol bo'la oladi.

Tushunchalar yerarxiyasida terminlar bilan bir qatorda otlar ham muhim o'rin tutadi. Otlar asosan ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki xususiy tushunchalarning nomlarini ifodalasa, terminlar doimo umumiy va nazariy tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'ladi. Terminologik tizimning shakllanish jarayonida qadimgi terminlar va termin otlar kabi o'tish shakllari ham kuzatiladi. Qadimgi terminlar yangi kashf etilgan tushunchalarni vaqtincha nomlash uchun xizmat qilib, ular shakliy barqarorlik va stilistik neytrallik kabi xususiyatlarga hali ega bo'lmaydi. Vaqt o'tishi bilan bunday birliklar yo qat'iy terminlarga aylanadi yoki iste'moldan chiqib ketadi. Shuningdek, fanlar tizimi shakllanishiga qadar mavjud bo'lgan va hunarmandchilik kabi sohalarda qo'llanilgan prototerminlar ham borki, ularning ko'pchiligi keyinchalik ilmiy nazariyalar doirasida qayta ishlanib, zamonaviy terminologiya tarkibiga kirgan.<sup>4</sup> Terminologiya so'zining o'zi ilk bor Germaniyada XVIII asr oxirlarida muomalaga kiritilgan bo'lib, u bugungi kunda ham muayyan soha terminlar majmuini, ham ushbu birliklarni o'rganuvchi fan sohasini anglatadi. Ba'zi tadqiqotchilar terminologiyani stixiyali tarzda to'planadigan birliklar to'plami deb hisoblasa, terminologik tizimni inson faoliyatining aniq bir sohasini tavsiflovchi, tartibga solingan va yerarxik bog'langan majmua sifatida talqin etadilar. O'zbek tilshunosligida atama va termin tushunchalari ko'pincha

3 Kalinina A. V. Lexikologie der russischen Sprache. – Moskau: MGU, 1971. – S. 144.

4 Grinev S. V. Einführung in die Terminologielehre. – Moskau: Moskovskij Licej,



sinonim sifatida qo'llanilsa-da, ba'zi olimlar atama so'zini kengroq ma'noda, ya'ni har qanday predmetni nomlash xususiyatiga ko'ra farqlashni tavsiya etadilar.<sup>5</sup>

Terminologiya – bu asosan kasb-hunar yoki ilmiy soha tiliga oid bo'lib, ma'lum bir sohaga xos, o'ziga xos ma'noga ega so'zlar va mutaxassislik atamalarining to'liq majmuini anglatadi. Turli ilmiy sohalarda (tibbiyot, zoologiya, botanika, kimyo va boshqalar) terminologiya o'sha sohaning lug'aviy bazasini tashkil qiladi. Terminlar ko'pincha yangi so'z birikmalarini shakllantirish, neytral birliklar orqali izohlash va turli chet tillardan o'zlashtirish orqali yaratiladi. Shu bilan birga, terminlar xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solinadi<sup>6</sup>. Termin– bu terminologiyaning asosiy birligi bo'lib, texnik yoki kasbiy so'z, atama sifatida ishlatiladi. Biror ilmiy sohaning terminlari quyidagi xususiyatlarga ega: Ular kasbiy yoki ilmiy tilga xos so'zlar yoki birikmalar bo'lib, oddiy kundalik til yoki boshqa tillardan olingan bo'lishi mumkin. Ular yangi yaratilgan bo'lishi va ilmiy kontekstda o'z ma'nosini aniq belgilash orqali ishlatiladi. Terminlar turli ilmiy sohalarda bir xil yoki o'xshash atama sifatida ishlatilishi mumkin, lekin har bir sohada u o'ziga xos, aniq belgilangan ma'noga ega bo'ladi. Shu tarzda, terminologiya ilmiy izlanish va muloqotning asosiy vositasini tashkil etadi va sohadagi so'z boyligi va tushunchalarni tizimli ravishda birlashtiradi<sup>7</sup>.

Terminologiya tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda muayyan fan sohasi yoki kasbiy faoliyatga oid atamalar tizimi sifatida talqin etilib, u kasbiy leksikaning o'zagini tashkil etadi. Tadqiqotchi Axmanova terminologiyani muayyan ishlab chiqarish tarmog'i yoki bilim sohasidagi atamalar majmui deb ta'riflagan bo'lib, u leksikaning ongli ravishda tartibga solinadigan alohida

---

5 Kukhno I. Ju. Terminologie als semiotisches System „zweiter Ordnung“. – In: Language. Philology. Culture. – 2014. – Nr. 4. – S. 42–43.

6 Dieter Günter Hans W. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache.- Berlin: Langenscheidt, 2011.-S. 1089.

7 Brock Haus. Enzyklopädie. - Leipzig-Mannheim: F.A. Brockhaus, 2006.-S. 220.



sektori hisoblanadi. Atamalar kasbiy til leksikasining belgilangan qismini ifodalaydi hamda bir ma'nolilik, aniqlik va lo'ndalik kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Fan sifatida o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida shakllangan terminologiyaning ilmiy natijalari atamalarni standartlashtirish va me'yorga solishga xizmat qiladi<sup>8</sup>. Felber kabi olimlar tomonidan ta'kidlanganidek, terminologik me'yorlash jarayoni atamalarni ilmiy jihatdan belgilash, ularga ta'rif berish va rasmiy me'yor sifatida e'lon qilishdan iboratdir. Bu jarayon bitta tushunchaga bir necha atama yoki bitta atamaga bir necha tushuncha birikib qolishining oldini olish hamda noto'g'ri shakllangan atamalarning muomalaga kirib qolishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Agar professional atama o'zining xos xususiyatlarini yo'qotib, umumiste'mol tiliga o'tsa, bu jarayon determinologizatsiya deb ataladi va natijada atama ko'p ma'nolilik hamda ekspressivlik xususiyatlariga ega bo'ladi<sup>9</sup>.

Terminologiya – bu ma'lum bir ilmiy yoki texnik soha doirasida qo'llaniladigan barcha maxsus atamalar va soha lug'atining majmuasidir. Ya'ni terminologiya muayyan fan yoki kasb sohasiga tegishli maxsus so'zlar va atamalar tizimini anglatadi. Shuningdek, shu so'zdan terminologisch sifati ham hosil bo'ladi. Terminologisch – “terminologiyaga oid”, “atamalar bilan bog'liq” degan ma'noni bildiradi<sup>10</sup>.

Terminologiyani boshqarish tushunchasi G. Budin tomonidan terminologik ma'lumotlar bilan maqsadli va ongli ravishda ishlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Uning fikriga ko'ra, terminologiyani boshqarish terminlarga oid axborotni yig'ish, tartibga solish hamda uni amaliy faoliyatda samarali qo'llashni o'z ichiga oladi. Bunday faoliyat, ayniqsa, muayyan soha mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u terminlarning aniq va

8 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 45.

9 Felber H. Terminologie in Theorie und Praxis. – Bonn: Infoterm, 1984. – S. 25.

10 Dieter G, Günter H, Hans W. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache.- Berlin: Langenscheidt, 2011.- S. 108.



yagona ma'noda qo'llanishini ta'minlaydi hamda noto'g'ri talqinlarning oldini olishga yordam beradi. Shu sababli terminologiyani boshqarish ko'pincha til birliklarini standartlashtirishga qaratilgan normativ xususiyatga ega bo'ladi. Terminologik ish jarayonida terminlar tizimli ravishda to'planadi va ular bir yoki bir nechta tillarda maxsus manbalarda qayd etiladi. Bunday manbalarga terminologik lug'atlar, terminlar to'plamlari hamda maxsus terminologik ma'lumotlar bazalari kiradi. Ushbu ma'lumotlar tarjima va talqin jarayonlarida, texnik yoki ilmiy matnlarni yaratishda hamda axborotni boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Budinning ta'kidlashicha, dastlab information management tushunchasi terminografiya va terminologik faoliyat bilan deyarli bir xil ma'noda qo'llanilgan<sup>11</sup>. Biroq keyinchalik bilimlarni boshqarish va leksikografiya kabi ilmiy yo'nalishlarning rivojlanishi ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Leksikografiya til birliklarini bir tilda tizimli ravishda tartibga solish hamda ularning ma'nosi va qo'llanilishini lug'atlar orqali izohlash bilan shug'ullanadi. Terminografiya esa asosan muayyan fan yoki kasb sohalariga tegishli terminlarni yig'ish, tasniflash va ularni ilmiy hamda amaliy maqsadlarda qo'llashga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Shu jihatdan terminografiya terminologik bilimlarni tartibga solish va ularni amaliyotda qo'llashda muhim rol o'ynaydi<sup>12</sup>.

Terminologiyani boshqarish jarayoni terminlarni tanlash va ularni tizimli ravishda qayd etish bosqichidan boshlanadi. Har bir termin ma'lum bir ilmiy konseptning til orqali ifodalanishi bo'lib, termin va konsept o'rtasidagi munosabat terminologiya nazariyasida keng o'rganilgan. Konferensiya tarjimonligi amaliyotida ishlatiladigan sohaviy terminologiya ko'pincha nutq

---

11 Wright S. E, Budin G. Handbook of Terminology Management: Basic Aspects of Terminology Management. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1997. – S. 45.

12 Christoph Stoll. Jenseits simultanfähiger Terminologiesysteme.- Trier: Wissenschaftlicher Verlag, 2009. - S 48.



matnlari, maxsus veb-manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida shakllantirilgan matn korpuslaridan ajratiladi. Bunday terminologik birliklar odatda otlardan, frazeologik birliklardan va kollokatsiyalardan tashkil topadi; fe'l, sifat va ravishlar esa nisbatan kamroq uchraydi<sup>13</sup>.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ko'plab hollarda terminologiya muayyan soha jargoni ichida ishlatiladi, bu esa umumtilga mansub bo'lgan terminlarning maxsus soha kontekstida qo'llanilishi orqali sohaviy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Tarjimon tayyorgarlik jarayonida nafaqat terminlar, balki mavzuga oid muhim bilimlar ham tizimli ravishda qayd etiladi. Bu yondashuv nutqning argumentativ tuzilishi va fikrlar ketma-ketligini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, tarjimon uchun matn mazmunini to'g'ri tushunish va kontekstni anglashni osonlashtiradi. Shu sababli terminlarni tartibli ro'yxat shaklida qayd etish va matnda mavzuning rivojlanish jarayonini aks ettirish tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi<sup>14</sup>.

Terminologik birliklar turli lingvistik shakllarda uchraydi. Ularning orasida yakka terminlar, qo'shma so'zlar hamda ot birikmalari mavjud. Agar terminologik tizim ma'lum bir termin asosida hosil bo'lgan barcha qo'shma birliklarni aniqlay olsa, bu soha doirasidagi so'z yasash qoidalarini umumlashtirish imkonini yaratadi. Bu jarayon nafaqat tayyorgarlik bosqichida foydali, balki tarjima jarayonida ham muhimdir, chunki kerakli termin tizimda mavjud bo'lmasa, tarjimon mavjud bilim va til modeli asosida yangi termin shakllantirishi mumkin. Bunday taxminiy terminlar har doim mukammal bo'lmasligi mumkin, biroq tajribali konferensiya tarjimonlari tomonidan kontekst va inferensiya strategiyalari yordamida mutaxassis auditoriya tomonidan tushunarli bo'ladi. Shunday qilib, terminologiyani tizimli ravishda tanlash va qayd etish jarayoni, termin va konseptning nazariy jihatdan bog'liqligini hisobga olgan holda, tarjimonlik amaliyotida ham muhim

<sup>13</sup> Klaus Schmitz, Lamnitzer L. Terminologiearbeit. Eine Einführung. – Tübingen: Narr, 2014. – S. 33.

<sup>14</sup> Felber H. Terminologie in Theorie und Praxis. – Bonn: Infoterm, 1984. – S. 25.



ahamiyatga ega bo'lib, nutq mazmunini aniq va samarali ifodalashni ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1. Reformatskij A. A. Was sind Termin und Terminologie. – Fragen der Terminologie. – Moskau, 1961**
- 2. Калинин А.В. Лексика русского языка. – Москва: Просвещение, 1975**
- 3. Kalinina A. V. Lexikologie der russischen Sprache. – Moskau: MGU, 1971**
- 4. Grinev S. V. Einführung in die Terminologielehre. – Moskau: Moskovskij Licej,**
- 5. Kukhno I. Ju. Terminologie als semiotisches System „zweiter Ordnung“. – In: Language. Philology. Culture. – 2014**